

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel

RAQAMLAR:


- 2019 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1994,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 169,8 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiyligi xizmatlar hajmida 40,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 774,6 ming.so'mni o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib tur mush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omiliidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1994,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi eng katta hajm savdo xizmatlari (806,4 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm






Shu bilan birga, transport xizmatlari hajmi (328,4 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (312,6 mlrd. so'm),


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 11,7 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 68,6% ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida korxona va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklarida ntashqari) % da




2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (116,3 %), Denov (115,8), Termiz (107,8%), Sarasiyo(106,8 %) Oltinsoy(106,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar- aprel oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sishsur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Muzrabod (102,4 %), Angor (102,9 %) Qiziriq (104,2 %),Boysun va Qumqo'rg'on (105.0%) tumanlarida kuzatildi.

**2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Surhondaryo viloyati	1994,9	111,8
Termiz sh	839,9	116,3
tumanlar:		
Oltinsoy	65,1	106,5
Angor	59,2	102,9
Boysun	39,5	105,0
Muzrabod	49,7	102,4
Denov	405,3	115,8
Jarqurg'on	77,4	105,5
Qumqurg'on	69,6	105,0
Qiziriq	62,0	104,2
Sariosiyo	76,3	106,8
Termiz	62,3	107,8
Uzun	58,5	105,4
Sherobod	64,7	105,3
Shurchi	65,4	105,1

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (839,9 mlrd.so'm), Denov tumaniga (405,3 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Boysun (39,5 mlrd.so'm). Muzrabod (49,7 mlrd.so'm), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri etakchi o'rinni egallaydi.Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 42,1 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqor iulushlarni Denov tumani (20,3 %), Jarqurg'on (3,9 %), Sariosiyo (3,8 %) tumanlari tashkil etadi.


**2019 yil yanvar- aprel oylarida shaxar va tumanlar bo'yic hajami
xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan), %**



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Boysun (2,0 %), Muzrabod (2,5 %), Uzun (2,9 %), Angor(3,0 %),, Termiz ,Qiziriq (3,1 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar- aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 774,6 ming.so'mga ten gbo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,4% ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar- aprel oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 5780,2 ming.so'm qayd etildi. 2018 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish 5,3 % ni tashki letdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Muzrabot tumanida – 291,8 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajm mird so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1994,9	111,8
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	105,2	103,2
Moliyaviy xizmatlar	312,6	169,8
Transport xizmatlari	328,4	101,3
Shu jumladan:		
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	74,0	109,6
Savdo xizmatlari	806,4	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	57,2	105,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	54,4	98,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	20,9	106,8
Ijara xizmatlari	53,0	117,2
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	56,6	100,9
Shaxsiy xizmatlar	59,6	100,0
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	23,6	150,1
Boshqa xizmatlar	43,0	92,1

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha moliyaviy xizmatlar (69,8 %), Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (50,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari(17,2%) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**2019 yil yanvar- aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Taqqoslash uchun, 2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -131,3 %, Me'morchilik sohasidagi-135,2.

2019 yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 806,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 128.5 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (262,6 mlrd.so'm), Denov (185,6 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (35,4 mlrd.so'm), Sarasiya (34,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (33,8 mlrd. so'm), Sho'rchi (32,3 mlrd. so'm), Termiz (31,9 mlrd. so'm) tumanrida qayd etildi.

2019 yil yanvar- aprel oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Boysun tumanida kuzatilmogda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 17,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Surxondaryo viloyati transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rinn tutadi.

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni transportida ko'rsatilgan xizmatlar (16,5 %) egallaydi.

2019 yil yanvar- aprel oylarida transport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Surxondaryo viloyati Xizmatlar sohasi

Statistikasi bo'limi

Mas'ul: P.Eshboeva

Tel: (71) 230-85-84